

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Mahsus
ta'lim Vazirligi Al Xorazmiy nomidagi
Urganch Davlat Universiteti
"Tarix" fakulteti 101- guruh talabasi
Saidolimov Sayidobid
Qadimgi dunyo tarixi fanidan yozgan*



KURS ISHI

Mavzu: Xindiston madaniyati

Topshirdi:

Саидалимов Сайидобид

Qabul qildi:

Ergashev O.T

Samarqand 2012

REJA:

I. KIRISH.

II. ASOSIY QISM.

1. Xindistonda ilmiy bilimlarning paydo bo`lishi va rivojlanishi.

2. Xindistonliklar adabiyoti va san'ati.

3. Xindistonda din.

III. XULOSA.

IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH

Hindiston Sharqning eng qadimgi madaniy markazlardan biri bo'lib jahon madaniyati taraqqiyotiga salmoqchi xissa qo'shgan. Bu xududda madaniyatning shakllanishi juda qadimdan boshlagan, bunday yuksak madaniy ashyolar Mexendjaro Doro Xarappada topilganligi isbotlab turibdi. Hind xalqining tarixi, madaniyati, urf - odati, jamiyatda yuz bergan tarixiy siyosiy voqealar «Maxobxorat», Ramayana, Pancha tatra, «Artaxashsta» mazmunida mavjud bo'lib ilmiy ahamiyatga ega. Ming madhiyalarni qamrab olgan «Rigved» oriy qabilalarning diniy tasavvurlarini namoyon etadi.

Hindiston territoriyasining hajmi va aholisining soni jihatidan uzoq o'tmishdayoq hozirgiday kabi Osiyoning eng katta mamlakatlaridan biri bo'lgan. Uning tabiyat yaratgan keskin chegaralarini tashqi olamdan ajratib qo'ygan, boshqa mamlakat va xalqlar bilan aloqasini qiyinlashtirgan. Uning janubiy, janubi - g'arbiy va janubi - sharqiy chegaralari Hind okeani, Arabiston dengizi va Bengal qo'ltigi bilan o'ralgan. Shimoliy chegarasi esa yer yuzining eng baland Himolay tizma tog'lariga taqalgan. Tog'li to'siqlar sira o'tib bo'lmaydigan darajada bo'lmasada, juda. baxaybatdir va ular Hindistonning g'arbda Erondan va sharqda Hindi - xitoydan ajratib turadi.

Karvak ta'limotining yoyilgan, bu ta'limotga ko'ra ilk va bilimning bosh manbai bu - tajriba bo'lgan. Chorvachilik, dehqonchilik tez taraqqiy etganligi sababli astronomiya, matematika va astranomiya fanlari taraqqiy etgan. Hindlar quyosh va suv soatlaridan foydalanganlar, o'z kalendarlarini tuzganlar. Bir yil 360 kunga bo'lingan.

Mil.av. XI - X asrlardayoq Hindlar yerning shar shaklida ekanligini bilgan. Mil.av. 3-2 ming yilliklarda madaniyatda hisobning o'g'irli tizimi vujudga kelgan, shuningdek nolni bildiradigan belgi, birinchi Hindistonda ishlatilgan. Xind raqamlaridan keyin arablar foydalangan. Hindiston issiq mamlakat, shuning uchun ham bu yerda kasallik ko'p bo'lishi tabiiy. Tibbiy fani ham tez rivojlangan. Hind tabiblari kasalni aniqlash va uni davlat uslublarining o'zlashtirib olganlar, dorilar o'simliklar, mineral buyumlar va hayvon a'zolaridan dori tayyorlanganlar.

Dori - darmonlar 1000 dan ziyod bo'lgan. Davolashda silash, uqalash, vanna qilish ishlatilgan. Jarroxlik uslubi kam ish ishlatilgan. Hindlar bo'yoq, kislota va tuzli kimyoviy moddalarini ixtiro etganlar. Hindiston shaxmatni ham vatanidir.

Me'morchilik va san'atda kam yuksak madaniyatga erishilgan. G'isht, tosh, yog'och va boshqa buyumlardan ajoyib, go'zal, xashamatli nozik imoratlar, saroylar qurilgan gumbazli binolar, tog' qoyalariga o'yib ishlangan g'or ibodatxonalar o'zining nozikligi va chiroyligini yo'qotgan emas.

G'isht va toshdan imoratlar qurish mauriylardan keyin boshlanadi. Ibodatxonalar qurilishi keng suratda olib borilgan. Haykaltaroshlik san'ati kam mauriylar davridan keyin rivojlanadi. Haykaltaroshlikning 3 ta maktabi vujudga kelgan.

Gandhara (shimoliy - g'arbiy Hindiston) Matxura (Shimoliy Hindistonning markaziy qismi) viloyatlardan biri.

Gandhara san'at maktabining rivojlanish rim ta'siri bo'lgan. Bu jarayon asrlarga tegishli. Gandhara uslubi Hanisha davrida markaziy va

sharqiy Osiyoga tarqaladi. Ibodatxona va Manastirlarning nafis va soʻziga xos uslubda Adjanta qurilgan (Gʻarbiy Xindiston).

Qadimgi Hindiston madaniyatida diniy harakterga ega boʻlgan adabiyotlar muhim oʻrin egallaydi. Shulardan «Maxabxorat va Ramayana». Bularning xar biri oʻn minglab sheʼrlarni qamrab olgan.

Maxabxoratda ikki avlod Kauriya va Pandaviylar podsholarning taxt uchun kurash olib borishga bagʻishlangan.

Ramayanada esa Ramayaning qismati uning xotini Sitani devlar oʻgʻirlab Seylonga olib boradilar, Ram esa ayiq va maymunlardan katta qoʻshin toʻplab, devlardan xotinini ozod qiladi va otasi taxtini egallaydi.

Vedalar - Giminlar, qoʻshiqlar afsunkor va diniy duolardan toʻplangan toʻplamdir. I ming yillikning ikkinchi yarmiga kelib buddaga bagʻishlangan adabiyotlar paydo boʻldi.

Chandragupta II davrida Kalidas faol faoliyat olib bordi «Shakuntala» dramasini yozdi. Hindiston xalqi ham boshqa sharq xalqlari kabi turli dinlarga sigʻingan va erta shakllangan. Ular narsalarga, hayvonlarga, tabiat xodisalariga va oʻlgan kishilarning arvoxlariga sigʻinganlar. Quyosh va olovga kam sigʻinganlar. Hindlarda eng qadimiy dinlardan biri Braxmanizm edi. Bu din miloddan avvalgi IX-XI asrlarda vujudga kelgan. Bu din eʼtiqodlariga koʻra xudo Braxma olamini va odamni yaratgan deb hisoblagan. Braxmanlarning taʼkidlashicha, xudo odamlarni oʻz tanasining turli qismlaridan yaratgan. Xudo oʻz ogʻzidan braxmanlarni, qoʻllaridan jangchilarni, sonlaridan dehqonlar va hunarmandlar, loyga belangan oyoqlaridan shudralar yaratilgan.

Dastlabki davrda kohinlar xali tabaqa bo`lib ajralmagan, barcha xudolar va ibodat marosimlari oddiy taqvadorlar tomonidan amalga oshirilgan. Qadimgi Hind patriarhal hayotini va jamoatchilik munosabatlarini ifodalovchi olovga va ajdodlarga sig`inish mangu qonunlarida o`z aksini topgan.

Unda aytilishicha, «ota-bobolar dastlabki xudolardir, ular g`azabdan xoli bo`lganlar, mutloq pok, doimo bekamiko`st, nizodan yuz o`girdilarki va katta fazilatlarga ega» bo`lganlar. Asosiy varnalar - braxmanlar professional kohinlar va boshqalar mangu. Qonuni va diniy aqidalarda ilohiylashtirilgan Varnalar ichida eng qudratlisi va ta`sirchanlik braxmalardir.

Bu din asoschisi Yajna bo`lib, unga atalgan marosimlarda dastlabki davrlarda hatto asrga kirgan odamlarni olov xudosi oldiga qurbon qilganlar hudolar panteonida kam muayyan tartib o`rnatilgan. Eng oliy uch xudo olamini yaratuvchi Braxma, uni qo`riqlovchi Vishnu, yashiruvchi va qayta tanlovchi shiva uchalasi birlashib yuqori pag`onani tashkil etgan, ularga atab dabdabali ibodatxonalar qurilgan. Hindistonda braxman iziga qarshi ammo noroziligi kuchaydi va bu noroziligi budda dinida namoyon bo`ladi. Buddistlar, avval barcha kishilar uchun, ularning qaysi kastaga tegishli bo`lishidan qat`iy nazar najot qidirishga va`da beradilar. «Hamma odamlarning terisi, go`shti, suyagi va kallasi bir, ularni faqat bezaklari va bosh kiyim bilan ajratish mumkin» deb ta`lim bergan. Budda dini asoschisi Siddharta Gautama . Budda ta`limoti buddistlar yaratuvchi xudolarni inkor etadilar. Chunki ularga fikr erkinligining ta`siri bo`lgan. Ularning ta`rifiga ko`ra «Xudo hamma narsaga qodir, qudratli bunyodkor bo`lganida dunyo buncha dard - alam

bilan to'plangan, u albatta, olamni baxtsizlik va jabr - zulmdan qutqargan bo'lar edi. Budda ta'limotining asosiy mohiyati jabr -zulmdan qutulish chorasini «Kashf» etishdan iborat uning ta'rifiga najotkorlik vazifasini ado etuvchi to'rt buyum haqiqat mavjud. Birinchi haqiqatga o'tkinchi dunyo g'am g'ussaga to'la kar bir mahluk o'lganidan keyin boshqa bir jism (o'rmon, hayvon va hakazolar) tomonidan qayta berilgan. Borliq jabr - zulm demakdir yashash - jabr chekish, yo'qlik - ezgulik. Ikkinchi haqiqat - jabr zulmning sababchi hayotga tashnalik, orzu istak, kayf safo, xavas tuyg'ulari, har bir istak va intilish aktiv faoliyat talab etadi, faol xarakat yangi azob - uqubat keltiradi. Shuning uchun buddist sevgi - muxabbat, raximdil avf etish kabi faoliyat uyg'otuvchi mil.av. VI asrda buddizm paydo bo'ldi. Mamlakat axolisi 83% shu dinga sig'inadi (656 mm), dunyo bo'yicha 700 mm necha buddizmga sig'inadi. Banbadeshda - 12 ml, Indopeziyada 3,6 ml, Iri Lannada-3 mm, AQSHda-0,5 ml, Buganda-0,3 ml. Asosiy xudolar: Braxma, Vishnu, Shiva. Xindlar ikki xudoga sig'inadilar, ya'ni Vishnu va Shiva. Ish sababdan xindlar ikki oqimga bo'linadi Shiva va Vishnuga sig'inganlar.

Shiva oddiy xalq hammasi kambag'allarning ilohi u rigvedaning birinchi nusxalarida rudra nomida zikr etiladi.

Hindistonda Shivaizmning 13 ga yaqin asosiy oqimlari mavjud. Asosiy oqim Gridandinalar (42 oyoqlilar) va shartlar (haqqoniy rivoyatlar)ni aytish mumkin. Dandilar - bu oqimga kiruvchilar oyoqlarining pastki qismidan qon chiqaradilar. Manbachilar - ular bo'yinlariga menga osib yuradilar, oltin, kumush quyida olib yuradi

bug`omlar, iborat vaqtida chap kopir tutib turadilar. Bir necha guruhlarga bo`lishdi, o`zaro qudachilik qilmaydilar.

Yoglar tarki dunyo qilgan odil sifatida turli kuyga soladilar. Xalq orasida shivaning 1008 ga nomi bor.

Vishnu — ikkinchi iloh. Rigvedada tabiatga jon ato etuvchi quyosh xudosi Vishnu birinchi darajali iloxiy ko`rsatiladi. Ibodat paytida Vishnu Sovigar Roxiga, Surnya, Adita nomlari bilan aytiladi. Budda ta`limoti asosan uch qismdan iborat.

1 - axloq.

2 - Meditatsiya.

3 - Donolik.

1) Ahloq normalari-qancha shina (buddaning besh nasixati).

1. Qotillikdan saqlanish;

2. O`grilikdan saqlanish;

3. Gumrohlikdan saqlanish;

4. Qalbni yolg`on narsalardan saqlash;

5. Mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

Donishmandlik - narsalar tabiatini to`g`ri tushunish. Uyg`unlardan xoli bo`lishi kerak.

Uchinchi kaqiqat – jabr - zulmdan faqat barcha istak, orzu – niyat va zavq -safida kechish orqali qutilish mumkin.

To`rtinchi haqiqat - charxi falak yaratgan qayta tirilish doirasida ro`shnolik (nirvana) orqali qutilib abadiy yo`qolib ketish, ro`shnolikga erishish uchun «to`g`ri o`ylash», to`g`ri gapirish, to`g`ri harakat, to`g`ri turmush tarzi, to`g`ri niyat, to`g`ri razm solish zarar deb hisoblanadi.

Xullas, buddizm yozuvlikka qarshilik ko'rsatmaslik, itoatkorlikni, har qanday borliqqa befarq bo'lish kabi jaxolatparastlik g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan.

Shuning uchun bo'lsa odam podsho Ashok mil.av. XV asrda buddizmni davlat dini darajasiga ko'tardi.

Hindistonning bepoyon yerlarida g'oyat xilma - xil tabiiy sharoitlarni ko'rish mumkin. Sersuv daryolarning vodiylari cho'l va sax,rolar bilan almashib turadi. SHimolning qor - muz bilan qoplangan tog'lari aksiga janubda keng tropik o'rmonlarni ko'rasiz. Asrlar davomida mamlakatning iqlimi o'zgarib kelgan va bu hol undagi o'simlik va hayvonot dunyosiga, tabiiy, ta'sir hilgan. Ko'p joylari (ayniqsa shimoliy - g'arbiy tomoni)da huro'oqchilik kuchayib borgan. Qadimda uning o'rmonlari hozirgidan ko'ra ancha ko'p bo'lgan.

Hindiston inson hayoti uchun zarur tabiiy boyliklar bilan juda yaxshi ta'min etilganligidan, chetdan mahsulot olib kelishga ehtiyoj bo'lmagan. Mamlakatning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyat darajada boy bo'lgan. Bunda arpa bilan bug'doydan tashqari qadim zamonlardayoq sholi etishtirganlar. SHoli dastlab G'arbiy Osiyoga, Afrika va Yevropaga xuddi Hindistondan tarqalgan. Madaniy o'simliklardan shakar qamishi va paxakn alohida aytib o'tish kerak, g'arb tomondagi mamlakatlar bu ekinlar bilan va ayniqsa ziravorlar bilan xuddi shu Hindiston tufayli tanishganlar.

Qadimgi Hindistonda hayvonlarning mahalliy turlarini qo'lga o'rgatganlar (masalan, o'rkachli xo'kiz - zebu Ikki daryo oralig'iga va Misrga Hindistondan olib kelingan). Fillar ham dastlab Hindistonda qo'lga o'rgatilgan va ular asosan harbiy ishda foydalanilgan. Aleksandr

Makedonskiy yurishlaridan e'tiboran g'arbiy xalqlar kuchli jangovar fillarni jayagda ishlatishni hindlardan o'rgana boshlaganlar.

Hindiston har xil qimmatli xom ashyoning (tosh, metall rudalari, yog'ochning) bitmas - tunganmas manbai bo'lgan. Mana shularning hammasi xo'jalikni mustaqil ravishda taraqqiy qildirishga imkon bergan, lekin tabiiydirki, boshqa qabila va xalqlar ham mamlakatlarga kelib kirgan va tashqi savdo ham (ayniqsa Eron va O'rta Osiyo orqali) taraqqiy topgan.

Ikki azim daryoning vodiylari Hindistonning eng qadimgi dehqonchilik zonalaridir. Biri - byoshta irmog'i (Panjob) bo'lgan Hind daryosining vodiysi bo'lsa (o'sha beshta irmoq oti bilak vodiya ham Panjob deb nom berilgan), ikkinchisi, shuningdek, bir qancha irmog'i bo'lgan Gang daryosining vodiysidir. Keyinchalik qishloq xo'jaligi mamlakatning janubida Dehqon prim orolida ham rivoj topgan.

“Hindiston” degan geografik termin keng ma'noda olingan bo'lib hozirgi Pokiston territoriyasini ham o'z ichiga oladi.

Evropa tillarida “saxar”, o'zbek tilida “shakar” sanskrit tilidagi “oakxar” so'zidan olingan, bu shakar qamish deganidir. Qadim zamonda lavlagidan qand qilish ma'lum bo'lmagan.

Hind va yuqori Gang vodiylarida erni sug'orib dehqonchilik qilish erta tarraqqiy qila boshlagan. Boshqa joylarda dehqonlar yogiga qaram bo'lgan. Gangning quyi oqimida yog'in ayniqsa ko'p bo'lgan. Yozda janubi g'arbdan esadigan va juda ko'p. nam olib keladigan musson shamolining mamlakat uchun ahamiyati ayniqsa katta bo'lgan. Bu shamol esmay to'xtalib qolganida yoki kuchsiz va sekin esganida qo'rg'oqchilik ro'y bergan.

Eng qadimgi hind adabiy yodgorliklari, shuningdek, antik dunyo avtorlarining guvohliklari qadimgi Hindiston aholisi nihoyat darajada zich boʻlganligi haqidagi xotiralarni saqlab qoldirgan. SHubha yoʻqki, bu maʼlumotlardagi raqamlar haddan tashqari koʻpirtirilgan, lekin har holda, Hindiston aholisining soni Misr va Old Osiyo aholisi sonidan oʻtib ketgan va bu jihatdan faqat Hitoygina unga raqib boʻlishi mumkin.

Hindiston aholisining etnik tarkibi qadimda (hozirgidek) juda xilma - xil boʻlgan. Janubda qora badanli qabilalar koʻpchilikni tashkil etgan. Mamlakatning eng qadimgi aholi dravid tilida, qasmani undan ham burungi, draviddan oldin oʻtgan mund tili va boshqa tillarda gapirgan boʻlsa kerak. Hozirgi kunda bu til baʼzi rayonlardagina saqlangan. Eramizdan avvalgi II ming yillikda Hindistonda halqlarning hind - evropa oilasi tillarida gapiradigan qabilalar tarqala boshlagan. Sanskrit deb nom olgan adabiy til ana oʻsha tillar asosida tashkil topgan.

Sovet va chet el tadqiqotchilarining fikricha, shimoli - gʻarbdan koʻchib kelgan mana shu va ulardan ancha keyingi qabilalar oʻzlarini oriylar deb ataganlar. Bu etnik nom keyinchalik «aslzoda» degan maʼno kasb etgan, chunki istilochilar boʻysundirilgan mahalliy aholiga past nazar bilan qarab, oʻzlarini baland va ustun qoʻyganlar. Ammo u yoki bu etnik guruhning «irqiy yoki tili jihatidan» ustunligi toʻgʻrisida hech qanday gap boʻlishi mumkin emas. Hamma narsa biron bir tarixiy paytdagi taraqqiyotning aniq sharoitiga bogʻliq boʻlgan.

Qadimgi Hindiston tarixiga doir asl nusxa manbalarning juda koʻp qismi yoʻq boʻlib ketgan. Qadimgi hind adabiyotining koʻp asarlari qayin poʻstlogʻigʻa yoki palma daraxti barglariga yozilgan boʻlib, ular Misrdagidan koʻra ancha nam iqlim sharoitiga bardosh bera olmagan

(Misrda papirusdan Mashhur Maxabxarata dostonida aytilishicha, Kurukshetra yonidagi 1 kunlik jangda 1 milliard 660 million 200 jangchi halok bo`lgan. Bu har qanday mubolag`adan ham oshib ketgan albatta, ammo bunday fantastik tasavvur aholisi zich bo`lmagan mamlakatda ro`y berishi mumkin bo`lmasa kerak, chunki uning haqiqatdan uzoqligi ko`zga yaqqol tashlanar edi. Ular Avstraliya habashlari irqiga mansub bo`lgan.

«Sanskrit» degani «tozalangan» deganidir. Xalq gapiradigan til dan farq qilib prakrit deb atalgan.

Ikkinchi tomondan, yong`inlar Old Osiyoning sopol kitoblariga zarar keltirolmagan bo`lsa, qadimgi Hindiston kutubxonalari va arxivlarini xarob qilgan, Toshga o`yib yozilgan tekstlarning asl nusxalari saqlangan bo`lsada, ular nisbatan ozdir.

Yahshiki, sanskrit qo`p qadimgi sharq tillaridan farq qilib hech esdan chiqmagan va adabiy an`analar ming yillar davomida uzilmay davom etib kelgan. Qimmatli va noyob deb hisoblangan asarlar doimo (yahudiylarning Bibliyasi va forslarning Avestasiga o`xshab) ko`chirib yozib kelingan va uning keyingi nusxalari bizgacha etib kelgan, lekin bunda ham qo`shimchalar qilinganda ba`zi joylari buzilgan.

Qadimgi Hindiston yilnomalarining ahvoli ulardan ham yomon. Ancha keyingi davrda, o`rta asrlardagi xronikalarga kiritilgan ayrim parchalardan boshqa yilnomalardan hech nima qolgan emas, deyish mumkin.

Vedalar, Maxabxarata va Ramayona hajmi ancha katta va mazmundor she`riy asarlardir.

Vedalar - gimnlar, qo'shiqlar, afsunkor va diniy duolardan iborat katta to'plamdir. Bunday to'plamlardan to'rttasi saqlangan. Eng qadimgi qismlari eramizdan avvalgi II ming yillikka mansubdir, keyin ular taxminan ming yildan ziyodroq davr davomida, qayta ishlangan va uning eng oxirgi nusxasi bizning eramizga yaqin davrda yozilgan.

Hind xalqining og'zaki ijodlaridan ikkita katta doston borki, ularni adabiy qimmat va tarixiy ahamiyati jihatidan olamga mashhur Gomer dostonlari bilan tenglashtirish mumkin. Bu dostonlarning biri Maxabxarata (Bxarata avlodlarining buyuk urushi) deb, ikkinchisi esa Ramayona (Ramaning faoliyati to'g'risida qissalar) deb atalgan. Garchi an'anada bu dostonlar avtorlarining nomi (Vayasi va Valmiki) saqlangan, ammo afsonaviy Gomerning tarixan rostligi qanchalik gumon bo'lsa, u avtorlar ham shundaydir.

U dostonlarning ikkisi ham eramizdan avvalgi I ming yillikning taxminan o'rtalarida tarkib topa boshlagan va eramizning dastlabki asrlarida qat'iy shakl olgan (vaqtlarni mutlaqo aniq belgilab bo'lmaydi).

Maxabxaratada Bxarata podsho urug'ining ikki avlodi - Kauravlar va Pandavlarning to'qnashishi himoya qilinadi. Birinchi avlod Xastinapur shahrini idora qilgan, ikkinchisi esa hokimiyatni uning qo'lidan tortib olishga uringan va bu urinish g'oyat xunrezlik urushiga olib kelib, unda jang qilganlarning juda ko'pchiligi halok bo'lgan.

Ramayonada o'gay onasinint ta'qiblariga chiday olmay, tug'ilib egan Ayodxiya shahrini tashlab ketgan shahzoda Ramaning g'urbatda kezib yurgani hikoya qilinadi. Ramaning xotini Sitani Lanka (Seylon) orolidagi devlar o'g'irlab ketgan bo'ladi. Shahzoda xotinini qutqazish uchun ayiq va maymunlardan iborat qo'shinga bosh bo'lib, orolga

boradi va dushmanlarini engadi. Pirovard natijada u o'z vataniga qaytib, otasining taxtiga o'tirishga muyassar bo'ladi.

Afsonaviy va epik asarlardan boshqa yana «Manu qonunlari» to'plami ham saqlangan. Ammo buning ham qaysi vaqtga mansubligini aniqlash juda qiyin.

Bu to'plam eramizdan avvalgi III asrdan to eramizning III asrigacha to'plab borilgan deb faraz qilinadi. Bu tob qonunlarga o'xshagan sof diniy huquqlar yodgorligi bo'lib, undagi grajdanlik va jinoyat qonunlari diniy qonunlar va taqiqlar bilan qorishib ketgan va ijtimoiy tengsizlik nihoyasiga olib kelinib, dinning obro'si muqaddas va daxlsiz qilingan.


Artxashastra o'ziga xos yozma yodgorlik bo'lib, uni Aleksandr Makedonskiy zamondoshi mashhur mansabdor Kautile to'plagan deytilar. Davlatni idora qilish to'g'risidagi bu ajoyib asarda mamlakat markazlashtirilgan va byurokratlashtirilgan davrning sharoitini aks ettiradigan bir qancha muhim maslahatlar va amrlar bor.

Tipitakaning ertaklar va hikmatli so'zlar to'plami ilk buddizmni o'rganish uchun eng muhim manbadir.

Podsho Ashokiying (eramizdan avvalgi III asr) qoyalarga o'yib yozilgan farmonlari qaysi vaqtga mansubligi xiyla aniqdir. Bu farmonlar podsho olib borgan urushlar va uning diniy siyosatidan gapiradi.

Antik dunyo avtorlaridan o'z davridagi (eramizdan avvalgi V asrni) G'arbiy Hindistonni tasvirlab bergan bizga ma'lum Gerodotdan boshqa ayniqsa eramizdan avvalgi II asrda yashagan Arrianni ko'rsatib o'tish zarur. U o'zining «Aleksandr anabasisi»da bu podshoning Hindistonga qilgan yurishini hikoya qiladi va maxsus «Hindiston» degan asarida bu mamlakatning mufassal geografik ocherkini beradi.

Moddiy madaniyat yodgorliklari qadimgi Hindiston tarixining har xil tomonlarini yoritib beradi. Masalan, asrimizning 20 - yillarida Hind havzasida boshlangan arxeologik qazishlar natijasida mamlakatning ariylar ko`chib kelguncha va sanskrit tilidagi eng qadimgi adabiyot yaratilguncha bo`lgan davrni ochib beradigan, eramizdan avvalgi III va II ming yilliklardagi protohind madaniyati bizga ma`lum bo`lib qoldi.



Mozenjo - Darodagi quduq

K. Marks hind jamiyatini o`rganishga katta ahamiyat bergan edi. U o`zining “Hindistonda Britaniya hukmronligi” degan asarida hind qishloq jamoalariga to`g`ri baho bergan, bu jamoalarning mustahkam va turg`unligining sabablarini ochgan va shu bilan birga ularning muqarrar buzilib ketajagini aytgandi. U «bu kichik - kichik jamoalar kastachilik tafovutlari va qulchilik xislatlariga muhtalo bo`lgan» va «garchi birinchi qarashda xiyla beozor bo`lib ko`rinsada, hamma vaqt sharq despotizmining mustahkam negizi bo`lib kelgan» degan edi.

Aholining eng ko'p qismi vayishlar deb atalgan uchinchi varnaga kirgan. Ular Braxmanning qovurg'asidan chiqqan deb hisoblangan. Vayishlar asosan jamoatchi dehqonlardan iborat bo'lib, hunarmandlar va hatto savdogarlar ham shu varnaga mansub bo'lgan. Ruhoniylar va zodagonlar savdogarlarga past nazar bilan qaraganlar.

To'rtinchi varna, shudralar bo'ysundirilgan ajnabiylar va shuningdek, o'z urug' va qabilalaridan ajralib ko'chib kelganlar hisobiga to'ldirib turilgan. Ular Braxmanning tovonidan paydo bo'lgan zoti past kishilar bo'lganlari uchun chang tuproqqa belanib yashashga mahkum etilgan xalq deb hisoblangan. Ular jamoalarga yaqinlashtirilmagan va biron bir xizmat, vazifaga qo'yilmagan. Hatto ba'zi diniy marosimlar, chunonchi, faxrli marosim - «ikkinchi bor tug'ilish» marosimi, ular uchun o'tkazilmagan.

Shuni ham aytish kerakki, hatto o'sha eng pastki varnaga kiritilmaydigan, varnalardan tashqari kishilar ham bo'lgan. "Chandallar" deb atalgan bunday kishilarni toza suvni harom qiladi deb quduqlarga ham, yaqinlashtirmaganlar.

Har bir varnaning huquq va vazifalari keyinchalik «Manu qonunlari» to'plamiga kiritilgan. Bu qonunlarda braxmanlar birinchi o'ringa qo'yilgan, Harbiy zodagonlar (kashtriyalar) braxmanlarni hurmat qilishi (yuzga kirgan kashtriya hay o'n yashar braxmanga egilib salom berishi) lozim deyilgan. Lekin amalda bu varnalarning ikkisi ham hokimlik va imtiyozlarga teng sherik bo'lgan, ular garchi bir - biri bilan raqobatlashsada, xalq ommasini bostirish zarur bo'lib qolganida birgalikda harakat qilganlar.

Bir xil jinoyat uchun turli varna vakillari har xil jazo olgan. SHudrani o`ldirgan braxman tavba - tazarru qilish va jarima to`lash bilan qutulib ketgan, u hayvonni o`ldirgani uchun ham xuddi shunday jazoga tortilgan. Ammo shudra braxman bilan faqat bahslashgani uchungina og`ziga qizdirilgan temir tiqqanlar.

Biroq varnalarga bo`linish sinfiy bo`linishga doim muvofiq kelavermagan. SHudralarning faqat bir qismi qullar holatida bo`lgan. Ikkinchi tomondan, oliy varnadan bo`lgan kishi ham qimor o`ynab (o`zini, ukalarini yutqizib. qo`ygan shahzodaga o`xshab) qul bo`lib qolishi mumkin bo`lgan. To`g`ri, oliy varnadan bo`lgan kishining pul to`lab yoki boshqa biron yo`l bilan qullikdan qutilishi osonroq bo`lgan, albatta.

Varnalarning bir - birlari bilan aralashishiga yo`l qo`ymaydigan qilib bo`linishi abadiy o`zgarmas deb hisoblangan din esa uni muqaddas deb e`lon qilgan (turli varna vakillarining bir - biriga qiz berib qiz olishlari man qilingan).

Bunda shu narsani eslatib o`tish kerakki, qadimgi Hindistonda diniy e`tiqodlar asrlar davomida ijtimoiy siljishlar ta`siri bilan o`zgarib turgan. Vedalarda tabiatning behisob xudolari, (osmon xudosi Varuna, o`t xudosi Agni, quyosh xudosi Surya va hakoza) tilga olingan.

Sinfiy va toifaviy ziddiyatlarning keskinlashuvi va alohida varnaga bo`lingan kohinlarning kuchayishi bilan diniy e`tiqodlar muntazam tartibga keltirilgan. Panteonga Braxma boshliq qilingan, chunki u beqiyofa va hamma narsadan xabardor bo`lgan. Hind kohinlari o`zlarini ana shu xudoning nomi bilan braxmanlar deb, asli qabila dinidan chiqib kelgan va har jihatdan qayta ishlagan davlat dinini esa braxmanizm deb

ataganlar. Varnalarning chiqib kelishi to'g'risidagi afsonada juda aniq va ravshan qilib ko'rsatilgan ijtimoiy tengsizlik abadiy va o'zgarmas deb e'lon qilingan.

Eramizdan avvalgi VI asrgacha shimoliy Hindiston juda ko'p podsholiklarga bo'lingan bo'lgan. Bitta Gang havzasining o'zida o'n oltita mayda davlat bo'lgan. Ulardan biri Magadxa davlati eramizdan avvalgi VI asrda tez kuchayib va kengayib borgan. Uning Bimbisara degan podshosi (eramizdan avvalgi 543—491 yillar) Gang daryosining deltasini egallab Bengal qo'ltig'igacha borib etgan, uning vorislari esa bu “muqaddas” daryoning butun havzasini va unga tutashgan tog'liq joylarni o'z mulklariga qo'shib olgan.

G'arbiy Hindistonda tarqoqlik uzoqroq saqlangan. Bu tarqoqlik holati Ahmaniylarning, keyinroq Aleksandr Makedonskiyning g'arbiy Hindistonni bosib olishlarini osonlashtirgan, Aleksandr Makedonskiy ikki yil ichida (eramizdan avvalgi 327—325 yillarda Hind daryosining etaklarigacha butun G'arbiy Hindistonni egallagan.

Hind qirg'oqlarida grek - makedon hukmronligi uzoqqa cho'zilmagan. G'arb istilochilariga qarshi keng halq ommasining harakatiga mashhur hind arbobi CHandragupta boshchilik qilgan. SHu narsa muhimdirki, u podsho urug'idan bo'lmagan, agar uning dushmanlari tarqatgan bir rivoyatga ishonish mumkin bo'lsa, u hatto nafrat bilan qaraladigan shudra varnasidan bo'lgan. CHandragupta Nandlar sulolasining so'nggi namoyandasi bo'lgan Magadxa podshosi Dxan Nandaning xizmatida o'zini ko'rsatgan. U podshoning g'azabiga yo'liqib, Panjobga qochib ketgan, u erda Aleksandr Makedonskiy bilan uchrashgan.

CHandragupta Magadxaga qaytib kelib taxtni egallagan. U eramizdan avvalgi 321 yildan 298 yilgacha podsholik qilib, qudratli Maurya davlatini barpo qilgan. Pataliputra shahri uning poytaxti bo`lgan.

Chandragupta butun shimoliy Hindistonni birlashtirishga muvaffaq bo`lgan. Grek - makedon garnizonlari Hind vodiysidan haydab chiqarilgan. Aleksandr Makedonskiyning vorislari uining davlatini tinchlik bilan o`zaro bo`lisha olmasdan, o`rtalarida nizo chiqqan, bundan Chandragupta foydalanib, Makedonskiyning vorislaridan biri Selevk bilan kelishgan. CHandragupta Selevkning qiziga uylanib, unga 500 ta jang fili bergan, Hind podshosi Hind vodiysiga tutashgan togliq (hozirgi Afg`oniston va Blujiston chegaralaridagi) joylarni o`z mulkiga qo`shib olib, g`arbiy chegaralarini xavfdan xalos qilgan.

Istilo qilish siyosati Chandraguptaning vorislari vaqtida ham, ayniqsa uning nevarasi Ashoka vaqtida (eramizdan avvalgi 273—236 yillar) davom etgan. Janubiy Hindistondagi Kaling davlati Ashoka podsholik qilgan vaqtda bo`ysundirilgan. Agar Ashoka yozuvlariga ishonish mumkin bo`lsa, shu davlatni istilo qilish uchun bo`lgan janglarda 100000 kishi o`ldirilgan va 150 000 kishi asir qilib haydab ketilgan.

Mamlakatning eng janubiy o`lkalarini istisno qilganda butun Hindistonni o`z ichiga olgan g`oyat katta Maurya davlatning ekoiomikasi xiyla rivoj topgan. Bunda chig`iriqlar vositasi bilan sun`iy sug`orish keng qo`llanilgan. Ba`zi erlardan yiliga ikki marta hosil olingan. Shahar hayoti taraqqiy topgan.

Pataliputrada va boshqa markazlarda hunarmandlar to'plangan, ular podsho va zodagonlar xizmatida bo'lib, ularga zeb - ziynat buyumlari ishlab berganlar. Ba'zi buyumlar (ayniqsa ip gazlama va shuningdek, metall buyumlar) ellin mamlakatlariga chiqarilgan. T'Seylon va Janubi - sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo - sotiq munosabatlari yo'lga qo'yilgan. Tanga pul zarb qilish rivojlantirilgan (Hindistonda birinchi kumush tanga pullar bir qadar oldin, eramizdan avvalgi V asrda paydo bo'lgan).

Savdo - sotiqda podshoning o'zi muhim rol o'ynagan. U tuz, mast qiladigan ichimliklar, marvarid va boshqa mollarni sotishni o'z monopoliyasi qilib olgan. Uning qullar ishlaydigan katta amloklari va ishxonalari bo'lgan.

Kosiblarning ko'pchiligini qishloq jamoalariga birlashgan dehqonlar tashkil etgan. Bu jamoalarning turg'unligini K. Marks qayta - qayta ta'kidlagan edi.

Chandragupta va uning vorislari o'zlarining g'oyat katta davlatini idora qilish uchun murakkab byurokratik sistema tashkil qilganlar, ularning xarajatlarini qoplash uchun g'oyat ko'p mablag' talab qilingan. Xilma - xil g'ayri qonuniy yig'im va poralardan tashqari dehqonlar va hunarmandlar gardaniga son - sanoqsiz soliqlar va majburiyatlar tushgan. Usha paytlarda odamlar, baliqning suv ichishini aniqlab bo'lmagani singari amaldorning qancha mablag' o'zlashtirib olishini ham bilib bo'lmaydi, der ekanlar.

Maurya sulolasi davrida hind jamiyatining diniy ideologiyasida anchagina siljishlar yuz bergan. Hukmronlik qilayotgan din sistemasi - braxmanizm — mamlakatni idora qiluvchi sulolani tobora qoniqtirmay

borgan. Uning aqidalari qabila tarqohligi sharoitida tarkib topganligidan shahar hayoti taraqqiy qilib borayotgan davlat markazlashtirilgan vaziyatga mos kelmay qolgan. Qohinlar boshchilik qilib turgan, savdogarlar uchinchi varnaga mansub qilib qo'yilgan sharoitda varnalarining bir - biridan keskin suratda ajralgan holda yashashiga savdo -sotiq ravnaq topib borayotgan g'oyat katta davlatda qat'iy rioya qilish mumkin bo'lmay qolgan. Podsholar o'zlariga zarur kishilarni ularning nasl - nasablaridan qat'iy nazar, xizmatga olaverganlar. Quchaygan podsho xokimiyati ruhoniylarning zo'ravonligiga toqat qilolmagan. Braxmanizmning eski sistemasi bilan davr ruhiga mos keladigan yangi diniy ta'limot o'rtasida raqobat tobora kuchayib borgan. Yangi dinlardan buddizm ayniqsa muhim o'rin olgan. Bu din etiqodchilar jamoasiga qiradigan kishining nasl - nasabi bilan mutlaqo qiziqmagan. Kishining muayyan qabila va varnaga mansubligi yangi dinga kirishiga to'siq bo'lolmagan. An'analarda budda diniy - falsafiy ta'limotini eramizdan avvalgi VII—VI asrlarda yashagan shahzoda Sidxartx yaratgan deyiladi. Bu ta'limot unga berilgan Buddha ("maorifparvar") laqabi bilan atalgan. Bu shahzoda kishilar chekayotgan azob - uqubatlarning sabablari haqida yosh chog'idayoq o'ylay boshlagan, deydilar. Ojiz gadoning, badanini yara bosgan kasal odamning ayanchli ko'rinishi, janoza manzarasi, mana shularning hammasi unda chuqur g'amginlik tug'dirgan.

U o'zining oliy martabasidan kechib elma - el kezgani jo'nagan, so'ngra va'zgo'y bo'lib ketgan. U o'zining ta'limotiga hayotning o'zi yovuz degan fikrini asos qilib olgan.

Buddizmdan boshqa yana jaynizm ham katta muvaffaqiyat qozongan, u ham dindorlarning nasl - nasabiga e'tibor bermagan.

Jaynizm ana shu masalada buddizmdan farq qilgan. Jaynchilar tarki dunyoni huzur bilganlar, bundan bosh tortish kerak emas, deganlarning birdan-bir chorasi har qanday ehtiros va har qanday urinish istakni bosishdir. Kishi bunga erishar ekan, u o'lgandan keyin yangi azob - uqubatlarni boshidan kechirish uchun boshqa bir qiyofada qaytib tirilmaydi. Mana shu uzluksiz o'zgarish protsessning to'xtashi nirvana, ya'ni yuksak farog'atdir.

Mana shu o'ziga xos ta'limotdan g'oyat katta amaliy xulosalar chiqqan. Najot yo'lini kishining o'zi, istaklarini bosish irodasi bilan topganligidan diniy e'tiqod va qohinlar ortiqcha bir narsa bo'lib qoladi. Kishining o'zini - o'zi kamolga etkazishi, boylik va dunyo farog'atidan voz kechishi nasl - nasabiga va jamiyatda tutgan o'rniga bog'liq emas. Bu tashqi momentlar e'tiqodchining yuksak farog'atga erishishiga monelik qilmaydi, Buddachilar toifaviy va qabilaviy to'siqlarni yoki mulkiy tengsizlikni zo'rlik yo'li bilan yo'qotishga hech qachon da'vat qilmaganlar, ularning hammasini ahamiyatsiz hisoblaganlar. Zotan, bir masalada ular tenglik printsipiga rioya qilishdan nazariy. jihatdan ham bosh tortganlar. Ozod kishilargina najot topa oladi, deganlar ular. Sangxiga (ilk buddachilar jamoasiga) qullar qabul qilinmagan. O'z taqdiriga o'zi ega bo'lmagan va o'z irodasi bilan ishni tark qilolmaydigan qulga yuksak farog'at yo'li berk deb hisoblangan.

Ruhiy tenglikning targ'ib qilinishi kambag'al va (qullardan boshqa) mazlumlarni yangi dinga jazb qilgan. O'rnashib ketgan tartiblarni zo'rlik yo'li bilan o'zgartirishdan, ijtimoiy, kurash va to'ntarishlarday voz

kechish ruhoniylar va zodagonlar zo`ravonligidan norozi bo`lgan, ammo mulkiy tengsizlikni yoqlovchi badavlat shaharliklarga ham juda ma'qul tushgan. Ilk buddizm boylikka beparvolikni targ`ib qilgan, bu esa birovlarining, mol -mulkiga ko`z olaytirishdan saqlagan. Buddachilar o`z targ`ibotchilari bo`lgan e'tiqodchilarni o`ziga jazb qilgan.

Maurya sulolasining podsholari uchun buddizmning braxmanizmga nisbagan bir qancha ustunligi bo`lgan. U imtiyozlarni emirib o`zgartirishga yordam bergan. Asli etnik holatga asoslangan bu imtiyozlar keng mustabid davlatni idora qilish ishiga g`ov bo`lib turgan. Bu imtiyozlar mamlakatning ayrim qismlarini birlashtirishga va davlat tuzumini yagona shaklga keltirishga xalaqit bergan. Sustkashlikka da'vat qilish quldorlarga juda ham qo`l kelgan, ayniqsa buddachilar qullarning huquqsizligini e'tirof qilganlar.

Yangi din Ashoka davrida atsniqsa muvaffaqiyat qozongan. Ashokaning o`zi buddizmni qabul qilib, Pataliputrada uning aqidalarini rasmiylashtirgan kengash chaqirgan. Bir qancha budda monastirlari ta'sis etilgan.

Lekin shu bilan braxmanizm tugatilgan ekanda deb o`ylash yaramaydi. Ashoka uni xayoliga ham keltira olmagan. Yangi din bundan avvalgi davrlarda ham kengash bo`lganligi to`g`risidagi ma'lumotlar shubhalidir.

Ma'lum birgina xalq bilan bog`lanmagan yangi din butun dunyo dini bo`lishga hamma asosi bo`lgan (bu jihatdan buddizmni xristianlik va islom bilan solishtirish mumkin). Hindistonning o`zida hamma tan olmagan buddizm eramizdan avvalgi III asrda mamlakatdan tashqarida

ayniqsa Markaziy, Sharqiy va Janubi - Sharqiy Osiyo xalqlari orasida tarqala boshlagan.

Buddizm asosan Maurya sulolasi podsholarining homiyligi tufayli Hindistonda muvaffaqiyat qozongan. Lekin Ashokadan keyin uning davlati zaiflashgan. Ko`pdan - ko`p o`lkalarni, turli tillarda gapiradigan va iqtisodiy hamda madaniy saviyalari xilma - xil bo`lgan xalqlarni mustahkam qilib jipslashtirish oson ish bo`lmagan.

Maurya sulolasi o`rniga kelgan SHunga sulolasi vaqtida (eramizdan avvalgi 187 - 73 yillar). Hind davlatining parchalanish protsessi ayniqsa keng tus olgan. Yangi sulolaning podsholari buddizmni qo`llamagan. Braxmanizm va u bilan bog`liq biqiq varna tuzumi yana kuchaygan.

Markazlashtirilgan davlatning zaiflashuvida tashqi hujumlar katta rol o`ynagan. Hindiston eramizdan avvalgi II asrdan e`tiboran tashqi hujumlardan azob cheka boshlagan. Avvalo Hindistonning g`arbida joylashgan Grek - Baqtriya podsholigi uning eng ashaddiy dushmani bo`lgan. Eramizdan avvalgi I asrda shimoli - g`arbdan kushonlar bostirib kirganlar. Hindistonning ancha qismi kushanlar ta`sis qilgan podsholik tarkibiga kirgan. Bu podsholikning markaziy qismi hozirgi Tojikiston SSR tuprog`ida bo`lgan. Kushonlar o`zlaridan ko`ra yuksak hind madaniyatini o`zlashtirganlar.

Eramizning III asrida Hindiston yana bir qancha mayda davlatlarga bo`linib ketgan. Eramizning IV—V asrlarida Magadxa yana tiklana boshlaydi. Magadxa yangi kuchli Gupta davlatining o`zagiga aylangan, lekin V asr oxiriga kelib bu davlat yana tushkunlikka yuz tutgan, natijada mamlakat yana tamomida parchalanib ketgan.

Dastlabki vaqtlarda tildan tilga o'tib kelgan qadimgi hind lirikasi (vedalar) va dostoni (Maxabxarata bilan Ramayona) yangi era boshiga kelib, to'liq shakllangan va yozib olinganligini biz yuqorida aytib o'tgan edik.

Shuningdek, xalq masallari to'plami (Panchatantra, ya'ni Besh kitob) ham paydo bo'lgan.

Eramizning V asrida qadimgi Hindistonning g'oyat zo'r dramaturgi Qalidasa maydonga keladi. Uning dramalari, ichida «Shakuntala» eng mashhuridir. Drama asarning bosh qahramoni tarki dunyo qilgan va podsho yaxshi ko'rib qolgan.

XULOSA

Qadimgi Hindistonda har xil falsafiy oqimlar, shu jumladan, materialistik oqim tarkib topgan. Masalan, charvak ta'limotiga ko'ra, bilishning birdan - bir manbai tajribadir. Ruhning tandan ajrashi to'g'risida Hindistonda keng tarqalgan ta'limot inkor qilingan. Ruh tandan ajralmaydi, degan fikr ilgari surilgan.

Sug'orib dehqonchilik qilinadigan boshqa mamlakatlardagi kabi Hindistonda ham astronomiya va matematika ancha ravnaq topgan. Bunda o'ziga xos Quyosh kalendari barpo qilingan. Yil 360 kundan iborat bo'lib, astronomik yilga moslash uchun har besh yilda bir marta kabisa oy qo'shilgan.

Eramizning V - VI asrlarida Hindistonda Yerning sharsimon ekanligini va yerning o'ziga tortish qonunini, shuningdek, erning o'z o'qi atrofida aylanishini juda yahshi bilganlar. Bu ilmiy kashfiyotlarni o'rta asrlarda arablar hindlardan o'rganib olganlar.

Ilk hind davridayoq (eramizdan avvalgi III— II mingyillikdayoq) Hind vodiysida hisobning o'nli sistemasi tarkib topgan. Keyinchalik hindlar matematikada ba'zi jihatdan boshqa sharqiy davlatlardan o'zib ketgan. Masalan, nolni bildiradigan alomat faqat Hindistonda ishlatilgan. Biz rim raqamlaridan farq qilib arabcha raqamlar deganimizni aslida qadimgi hindlar ixtiro qilgan va keyin bu raqamlar arablarga o'tgan. Arab algebrasida ham hindlar algebrasining ta'siri bor.

Qadimgi hind kimyogarlari sulfat, xlorat va azot kislota ishlashni bilganlar. Tabiblar kasalliklarni muayyan sistemaga solishga uringanlar

va organizmdagi asosiy shiralar nazariyasini yaratganlar. Hindistonda juda ko'p til va shevalar bo'lishi filologiya sohasida tadqiqotlar olib borilishini talab qilgan. Braxman olim Panini (eramizdan avvalgi V—IV asrlarda yashagan) “tozalangan” tilning, ya'ni adabiy (sanskrit) tilining grammatikasini tuzgan.

Xulosa qilib ayatadigan bo'lsak, Xindiston madaniyati o'ziga hos yuksak darajada bo'lgan.

Gumbazli binolar va o'ziga xos g'orlar, ibodatxonalar qadimgi hindlarning ajoyib arxitektura yodgorliklaridir. Ajanta g'or ibodatxonalarida saqlangan xilma - xil rangdagi friskalar (eramizdan avvalgi I—III asrlarda) o'zining realizm bilan kishini hayratda qoldiradi.

Hind madaniyati Markaziy va Sharqiy Osiyo mamlakatlariga (asosan buddizmning yoyilishi munosabati bilan) katta ta'sir ko'rsatgan. Hindiston g'arb olamiga arablar orqali ta'sir ko'rsatgan.

Xindistonda aniq fanlar ancha erta vujudga kelgan va rivojlangan.

Demak, bu mavzuni o'rganish asnosida men Xindistonning madaniyatini yuksakligini va sharq davlatlarida alohida o'rin egallashini kuzatdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <http://http://www.google.uz>
2. <http://http://www.uz.ref.uz>
3. <http://http://ziyonet.uz>
4. <http://http://nuu.uz>
5. Vsemirnaya Istoriya M. 1956 T. 11.b
6. Istoriya urevnego Mira M. 1982 T. 1-111.b
7. Nikiforov V.N. Vostok i vsemirnaya istoriya M. 1977.
8. Reder D.G. CHerkasova E.A. Istoriya drevnogo Mira M. 1985 ch-
9. Istoriya drvenogo Vostone m. 1989 pots red. V.I. Kuzitsina.
10. F. Boynazarov. Qadimgi dunyo tarixi. –T.: “Moliya iqtisod”. 2006.
11. Qadimgi dunyo tarixi. Ma’ruzalar matni. Urganch. 2009.
12. K. M a r k s va F. Engels. Tanlangan asarlar, I- tom, 1959 yil.